“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=335

2025-yil
11-son
noyabr
ISSN 3093-8546



Sud hujjatlarini ijro qilish jarayonida sun’iy intellektning roli

Muzaffar Muxtorov,
Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
Huquqshunos
e-mail: muzaffarmuxtorov01@gmail.com

Аннотация. Maqolada sud hujjatlarini ijro qilish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda sun’iy intellektning qarzdorlarni aniqlash, mol-mulkni qidirish, jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda xavf darajasini baholash kabi funksional imkoniyatlari atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, elektron ijro tizimlarini takomillashtirishda sun’iy intellektning o‘rni, uning ijro samaradorligiga ta’siri hamda inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishdagi ahamiyati tahlil etiladi.

Калит сўзлар. sud hujjatlari ijrosi, sun’iy intellekt, elektron ijro tizimi, avtomatlashtirish, ma’lumotlar tahlili, qarzdorlarni aniqlash, ijro samaradorligi, huquqiy asoslar, axborot xavfsizligi.

Аннотация. В статье раскрываются теоретические и практические аспекты использования технологий искусственного интеллекта в процессе исполнения судебных актов. В исследовании подробно изучены функциональные возможности искусственного интеллекта, такие как выявление должников, поиск имущества, автоматизация процессов, анализ данных и оценка уровня риска.

Ключевые слова. исполнение судебных актов, искусственный интеллект, электронная система исполнения, автоматизация, анализ данных, выявление должников, эффективность исполнения, правовые основы, информационная безопасность.

Annotation. This article explores the theoretical and practical aspects of using artificial intelligence technologies in the enforcement of court decisions. The study provides a detailed examination of the functional capabilities of artificial intelligence, including debtor identification, asset tracing, process automation, data analysis, and risk assessment.

Keywords. enforcement of court decisions, artificial intelligence, electronic enforcement system, automation, data analysis, debtor identification,

enforcement efficiency, legal framework, information security

Sun’iy intellekt bugungi raqamli texnologiyalarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida barcha sohalarda revolutsion o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlardan huquq sohasi ham chetda qolgani yo‘q. Jumladan, 2025-yil 21-avgustda “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-140-sonli Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur texnik infratuzilma yaratish, Oliy sudning axborot tizimlari negizida sud hujjatlari arxivi modulini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, sudlar faoliyatini raqamlashtirish bo‘yicha “Kiber huquq” yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, shuningdek, sudyalar va sud apparati xodimlarining raqamli savodxonligi va malakasini doimiy oshirib borish, sudga ariza berishdan oldin sun’iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlar shakllantirish kabi ustuvor vazifalar qilib belgilandi.

Sud hujjatlarini ijro etish tizimida ham tub o‘zgarishlar qilinmoqda. Yuqoridagi PF-140-sonli Prezident farmonida ijro varaqalarini avtomatik ravishda ijroga yuborish tizimi joriy etilishi belgilandi. Shunga qaramay bugungi kunda sud hujjatlarini ijro etishda ish hajmining yuqoriligi, sud hujjatlarini ijro etish samaradorligi yetarli emasligi saqlanib qolmoqda. Qashqadaryo viloyati sudining raisi Abduqayum Mahkamov jurnalist va blogerlar ishtirokida bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida Qashqadaryoda faoliyat yuritayotgan sudlar tomonidan 2023-yilning dastlabki 9 oyi davomida chiqarilgan jami 868 milliard 117 million 385 ming 243 so‘mlik 66 ming 958 ta yoki 60,2 foiz sud qarorlarining ijrosi ta’minlanmaganini aytib o‘tdi. Ushbu ma’lumotning o‘zi ham bu sohada qilinadigan ishlar mavjudligini ko‘rsatib turibdi. Sud hujjatlarini ijro etish jarayoniga sun’iy intellektning joriy etilishi ijro tizimidagi yuklamani kamaytiradi, jarayonlar avtomatlashtiriladi.

Sun’iy intellektni sud tizimi va ijro jarayoniga joriy etish davlatlarning raqamlashtirish siyosatida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Misol uchun **Rossiyada** Federal sud ijrochilari xizmati sun’iy intellekt texnologiyalarini amaliyotga faol joriy etmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi eng e’tiborga molik loyihalardan biri “Polina” nomli sun’iy intellektga asoslangan ovozli yordamchining ishga tushirilishidir. Mazkur tizim fuqarolarga sud ijrochilari xizmati bo‘limlariga borishga ehtiyoj qoldirmasdan, ijro ishlariga oid ma’lumotlarni masofadan turib olish imkonini beradi. “Polina” foydalanuvchilarni shaxsiy ma’lumotlari asosida aniqlay oladi, qarzdorlikka oid qo‘zg‘atilgan ijro ishlari, mol-mulkka qo‘yilgan hibslar, chetga chiqish cheklovlari, bank hisoblari bo‘yicha ma’lumotlar kabi turli ma’lumotlarni avtomatik tarzda taqdim etadi. Sun’iy intellekt tizimi, shuningdek, foydalanuvchi murojaatining mazmunini aniqlash, nutqni tanish va unga mos axborot bilan javob berish imkoniyatiga ega. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning birinchi yarmida sud ijrochilari xizmatining markaziy aloqa xizmatiga kelgan barcha qo‘ng‘iroqlarning qariyb 43 foizi aynan ushbu sun’iy intellekt yordamchisi tomonidan qayta ishlangan. “Polina” shuningdek “VKontakte” ijtimoiy tarmog‘i orqali keladigan murojaatlarni ham qabul qilib,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yilning birinchi yarmida 13,7 mingdan ortiq murojaatni ko‘rib chiqqan.

Rossiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish sud hujjatlarini ijro etish jarayonida nafaqat tezkorlik va aniq ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi, balki davlat organlari bilan aholi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani sezilarli darajada soddalashtiradi. Bu esa ijro tizimining yaxlit raqamli transformatsiyasi uchun samarali model sifatida e’tirof etilmoqda.

AQShda esa sud tizimini raqamlashtirish jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish kengayib bormoqda. Xususan, ijro jarayonlarida xavflarni baholash hamda yuridik axborotni qayta ishlashda sun’iy intellektga asoslangan ikkita muhim tizim – COMPAS va Ross faol qo‘llanmoqda.

COMPAS (Correctional Offender Management Profiling for Alternative Sanctions) – mashinaviy o‘qitish algoritmlariga asoslangan tizim bo‘lib, u shaxsning qayta huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini hamda sud qarorini bajarmaslik xavfini baholashda yordam beradi. Tizim oldingi huquqbuzarliklar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va boshqa ma’lumotlarni tahlil qilib, qarzdorning sud qaroridan bo‘yin tovlashi ehtimoli bo‘yicha prognoz beradi. Shu bilan birga COMPAS tizimi bir qator tanqidlarga sabab bo‘lgan. Tadqiqotlar ayrim holatlarda algoritmlar ma’lum ijtimoiy va etnik guruhlarga nisbatan yuqori xavf bahosi qo‘llaganini ko‘rsatgan. Bu holat tizimning shaffofligi, adolatliligi va etik jihatlari yuzasidan munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

Ross – Ross Intelligence kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellektga asoslangan virtual yuridik yordamchi. U sud ijrochilari, yuristlar va fuqarolarga yuridik ma’lumotlarni tezkor ravishda topish va tahlil qilishda yordam beradi. Tizimning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

– muayyan ijro ishiga tegishli sud qarorlarini tez topish;

– ijroga ta’sir ko‘rsatadigan qonunchilik va sud amaliyotini tahlil qilish;

– yuridik sohadagi o‘zgarishlarni avtomatik ravishda yangilab borish.

Ross yordamchisi sud ijrochilarining axborot qidirish vaqtini sezilarli darajada qisqartirib, ularning ish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari ijro jarayonlarini soddalashtirish, tezlashtirish va resurslarni tejashda muhim vositadir. Biroq, algoritmlarning adolatliligini ta’minlash, diskriminatsiya xavfini bartaraf etish va etik me’yorlarga rioya qilish ushbu tizimlarni joriy etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Qozog‘istonda joriy etilgan e-justice – bu sud tizimini to‘liq elektron muhitga ko‘chirish, sud jarayonlari va ijro harakatlarini masofadan boshqarish imkonini beruvchi integratsiyalashgan axborot tizimi hisoblanadi. Mazkur platforma orqali da’vo arizalarini topshirish, sud majlislarida onlayn ishtirok etish, sud qarorlarini elektron shaklda olish va ularning ijrosini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratilgan.

E-justice tizimi doirasida sun’iy intellekt asosida ishlovchi modullar ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, ijro jarayonidagi kechikishlarni aniqlash, taraflarga tezkor xabarnoma yuborish hamda inson omiliga xos xatoliklarni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirmoqda. Natijada, SI texnologiyalari sud-ijro jarayonlarining shaffofligini kuchaytirib, adolatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda va Qozog‘istonda raqamli huquqiy infratuzilmaning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xorijiy tajriba sud hujjatlari ijrosi jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari qo‘llanishi samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatmoqda. AQSHda COMPAS tizimi qarzdorlarning xatti-harakatlarini prognozlashga xizmat qilsa, Ross elektron yordamchisi sud amaliyoti va normativ-huquqiy ma’lumotlarga tezkor kirish imkonini beradi. Qozog‘istonda e-justice tizimi sud va ijro jarayonlarini to‘liq raqamlashtirib, ochiqlik va tezkorlikni ta’minlamoqda. Ushbu tajribalar ijro harakatlarida inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganini namoyish etadi.

O‘zbekiston uchun quyidagi yo‘nalishlar maqsadga muvofiq: yagona “e-Ijro” platformasini yaratish, qarzdorlarning xatti-harakatlarini baholovchi SI-modullarni joriy etish, Ross modeliga o‘xshash virtual yordamchini ishlab chiqish, algoritmlar shaffofligini ta’minlash hamda sud ijrochilarining raqamli kompetensiyasini oshirish. Bu chora-tadbirlar ijro tizimining samaradorligini yangi bosqichga ko‘taradi.

Raqamlashtirishning bunday yondashuvlari ijro jarayonlarining samaradorligini oshirish, qarzdorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish va sud hujjatlarini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.08.2025 yildagi PF-140-son, https://lex.uz/uz/docs/-7696567;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son, https://lex.uz/ru/docs/-7158604;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.01.2024 yildagi PF-1-son https://lex.uz/uz/docs/-6723273;

Робот “Полина” и пристав на основе ИИ-глава ФССП Аристов о цифровизации ведомства, https://rapsinews.ru/digital_law_news/20230811/309125611.html

Зарубежный опыт применения искусственного интеллекта в США, https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-primeneniya-iskusstvennogo-intellekta-v-sudebnoy-sisteme.